

## MAKTAB O'QUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH

*Fardu talabasi*

*Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, emotsional intellekt tushunchasi haqida hamda emotsional intellektni yanada rivojlantirish yo'llari shuningdek, maktab o'quvchilarida emotsional intellekt tushunchasi haqida ma'lumot berish kerakli va bu jarayonning pedagogik va psixologik jarayonlarda qanday ahaniyatga ega ekanligi haqida keng ma'lumot berilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Intellekt, jo'shqin faoliyat, sun'iy intellekt, tafakkurning mustaqilligi, aqliy qobiliyat, ijtimoiy tajriba, dunyo, rivojlanish

Intellekt (lotincha: intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi.

Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi. Intellekt tushunchasi ta'rif uchun bag'oyat qiyin tushunchalar sirasiga kiradi. Uzoq asrlar davomida insoniyatning eng zehni o'tkir ilm peshvolari intellektning aynan nima ekanligi haqida muttasil ilmiy-falsafiy munozaralar yuritib kelishgan. Lekin bundayin ilmiy bahslar qanchalik darajada keskin yoki murakkab bo'lmasin, ularda o'ziga xos mutlaq yakdillik bor edi: intellekt - insonning xos bo'lgan oliy tushuncha o'laroq qaralardi. Basharti, biror adabiy yoki fantastik asarda insondan o'zga mavjudod yoki narsaning ong va tafakkur sohibi bo'lishi, qisqacha aytganda - intellektga egaligi haqida gap borsa hamki, bu o'z nomi bilan badiiy to'qima yoki, fantastik uydirmadan nariga o'tmagan. Suqrot dan boshlab, Eynshteyngacha bo'lgan davrlarda hatto eng yuksak zakovatli olimlarda ham intellektning sun'iy bo'lishi mumkinligi haqida jo'yali jiddiy ilmiy fikrning o'zi bo'lgan emas. o'shanda ilk bora intellektning yasama shakli, ya'ni - sun'iy intellekt haqidagi bahslar o'rtaga chiqqan edi. Keling, ushbu maqolada biz ham yana bir bora o'sha muhim va qiziq masalaga - sun'iy intellekt masalasiga murojaat etib ko'ramiz. Avvalo "sun'iy intellekt" tushunchasining o'zi haqida. "Sun'iy" so'zining ma'nosi ayon: u kelib chiqishiga ko'ra tabiiy bo'lmagan narsani, ya'ni, inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni nazarda tutadi. "Intellekt" so'zini esa

bundayin oson ta'riflashning imkoni yo'q. Lug'atlarda uning ma'nosi juda xilma-xil beriladi. Masalan, intellektni "qaror qabul qila olish qobiliyati", "anglash qobiliyati" kabi qisqa va lo'nda ta'riflaridan tashqari, "bilish, idrok qilish va tahlil asosida, hamda, yig'ilgan tajriba hamda ko'nikmalar vositasida yangi vaziyatlarga moslasha olish" kabi uzundan uzoq ta'riflari ham bor.

Biroq, XX-asrning dastlabki choragidan boshlab vaziyat butunlay o'zgardi. Aniqrog'i, insoniyat o'z xizmati uchun elektron hisoblash mashinalari - kompyuterlarni joriy qila boshlar ekan, intellekt masalasidagi bahslar ham yangi o'zanga burildi. Insoniyat o'z qo'li bilan yaratilgan intellektual mashinalar - kompyuterlar, robotlar va boshqa shunga o'xshash mexanik-elektronik tizimlar tomonidan muayyan intellektual salohiyat taqozo etuvchi masalalarni mustaqil hal etishi, o'zi qaror qabul qilishi va vaziyatga qarab o'z hatti-harakatlarini muvofiqlashtira olishi mumkinligi kabi intellektual "hislatlari" bilan yuzma-yuz keldi.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirish, nihoyasiga yetkazishda, yechimini qidirishda usul va vositalarning shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarining keltirilishidan iborat bosqichlarning bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez echishda, echish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda trafaretga aylangan usul, eski yo'l va usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi. E.G'.G'oziyev aqliy taraqqiyotning o'sishini maktabda olinadigan bilimlar ta'minlaydi, deb hisoblaydi. O'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o'quv, ko'nikma va malakalarni ko'zda tutish kerakligini ta'kidlaydi. O'quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi. Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o'zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog'liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsialsababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Mazkur muammoni V.M.Karimova qo'yidagicha talqin etadi. qobiliyatlar masalasi eng avvalo inson aql-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning birligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Ilm fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aql sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatkichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal, miqdoriy, fazoviy ko'rsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'laydilar. Qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unga va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hech kim inkor etmaydi.

Intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli hatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofnii, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Chindan ham intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda milliy taraqqiyotning asosiy sharti va mezoniga aylanmoqda. Chunki intellektual jihatdan qoloq xalq hech qachon rivojlanmaydi. Dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarining ko'pchiligi intellektual mulk hisoblanadi. Odamning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo'ladi va faqat ko'plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Intellekt individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir. Intellektni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilindi. Horiyda bunday ishlar Spirmen, Bine-Simon, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalanildilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundan iboratki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boradi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu erda vaqt mezonii muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlashqobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan rus olimlari uchun qobiliyatning o'lchashni ishonchli mezonii bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. XX asr fenomenologik maktabining asoschisi bo'lgan Edmund Gusserlning (1859-1938) fikricha, ong bu murakkab tuzilma bo'lib, uning markazida aql joylashadi. Aqlning yorqin nurlari ongning barcha xilvatlarini yoritib turadi. Ong uchun aql bu yagona va eng yorqin quyoshdir.

Aql nurlarida fikr oqimi jilvalanadi. Fikr oqimiga 4 xususiyat xosdir:

1. Fikrlar go'zalligi va mukammalligi;
2. Fikrlarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro hamkorligi;
3. Fikrlarning mohiyati va ularni mantiqiy tushunchalar orqali aks ettirilishi.
4. Bu fikrlar oqimini o'rganuvchi fenomenolog olimning his-tuyg'ulari.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, intellektual akt vaqtida ong yetakchilik qiladi va muammoning hal etilishini boshqaradi, ongsizlik esa boshqarish obekti sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni subdominant holatida bo'ladi. Intellektual xulq-atvor o'yin qoidalarini qabul qilishdan boshlanadi, buni esa psixikaga ega bo'lgan sistemadan intellekt muhit talab qiladi. Intellektual xulq mezoni esa muhitni o'zgartirishi emas, balki individning muhitga moslashishi uchun muhit imkoniyatlarni ochishga juda ham katta yordam beradi. Bunday jarayonlardan keng ko'lamda foydalanish va o'quvchilarga keng ko'lamda tadbiiq etish psixologik jihatdan o'rgatishga katta yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Э.Ф.Ғозиев Тафаккур психологияси Т: “Ўқитувчи” 1991, 122-123-б.
2. В.М.Каримова, “Психология” Ўқув қўлланма Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002. 121-б.
3. В.М.Каримова, Р.И.Суннатова, Р.Н.Тожибоева. Мустақил фикрлаш.
4. “Шарқ” Т: 2000, 50-бет
5. Cosnier, J. (2007). The Psychology of Emotions and Feelings. Affections, Emotions, Feelings, Passions (Introducere in psihologia emotiilor si a sentimentelor. Afectele, emotiile, sentimentele, pasiunile). Bucharest: Polirom
6. Ekman, P. (2011). Emotions Revealed. Understanding faces and feelings (Emotiile date pe fata. Cum sa citim sentimentele de pe chipul uman). Bucharest: Trei
7. Goleman, D. (2001). Emotional Intelligence (Inteligenta emotionala). Bucharest: Curtea Veche
8. [Vol. 6 No. 5 \(2023\): JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH](#)
9. [Том 1 № 10 \(2023\): International scientific journal “Interpretation and researches” №10](#)
10. [Том 1 № 6 \(2023\): БЮЛЛЕТЕНЬ ПЕДАГОГОВ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА](#)
11. [Vol. 2 No. 5 \(2023\): Innovative Development in Educational Activities \(IDEA\)](#)
12. Sherqo'ziyeva, Z. (2023). YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *Interpretation and researches*, 1(10).
13. Axmedov, A. Y. (2023). STUDYING THE PROBLEM OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(5), 389-394.
14. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.